

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG'NING O'ZBEK ADABIYOTIDA
TUTGAN O'RNI VA MILLIY IJODKORLARNING U HAQIDAGI FIKRI

Nurmaxmatova Furuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

universiteti Ingliz filologiyasi

2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bannopova Z.X

Annotatsiya: Zamonaviy o'zbek adabiyoti ko'p millatli madaniyatga asoslangan bo'lib, uning rivojiga o'zi o'zbek bo'lmasa ham shu ona yurt Vatan bo'lgan turli millat va elat vakillari o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. Shunday arboblardan biri Aleksandr Arkadevich Faynberg (1939-2009) dir. Ijodkor she'riyat, tarjima, dramaturgiya kabi sohalarida qalam tebratib o'zining serqirra va aslo o'chmas izini, ijod yo'lini yaratdi. Ushbu maqolada shoirning o'zbek adabiyotidagi o'rni va u haqidagi fikrlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Mening shahrim", rusiy zabon, Rossiya va O'zbekiston, Abdulla Oripov, arbob, Toshkent, lirik qahramon, muhabbat.

Aleksandr Faynberg Toshkent shahrida tug'ilib voyaga yetdi. Uning ijodiyotida Toshkent tasviri, shahar hayoti, o'zbek xalqiga cheksiz mehr-muhabbat dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Shoirning "Mening shahrim" (Мой город) she'rida Toshkent obrazini insoniylik va sadoqat timsoli sifatida tasvirlagan. Bundan tashqari, uning ijodida falsafiy mushohada, hayot va o'lim, muhabbat va do'stlik, urush va tinchlik mavzulari batafsil yoritilgan. "Peshonamga bitilgan baxtim bor ekan, - deb yozadi Aleksandr Faynberg. - Men shu mustaqil O'zbekistonda yashayman. O'z umrim davomida milliy kamsitishni hech qachon his etmaganman. Adabiyot yo'lida menga o'zbek yozuvchilari juda ko'p bora yordam berishdi. Butun ijodim davomida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va ko'pdan-ko'p yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar va boshqa turli kasb egalarining yaxshiliklaridan bahramand bo'lib kelmoqdaman". Shoir

qalamiga mansub bir qator she'rlar tarjima qilinib "Chig'ir" nomli to'plam nashr etilgan bo'lib, bu jamlanma o'zbek kitobxonlari tomonidan iliq kutib olinibgina qolmay, ularning she'riy savodxonlik darajasini yanada ko'tardi.

Faynberg she'rlarida Sharq va G'arb ijod ana'nalari bilan bir qatorda mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan badiiy fazilatlarni o'zida jamlagan o'ziga xos adabiy uslubni yarata oldi. Uning asarlarida o'zbek-rus-baynalminal lirik uslub yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ijodkor bolaligining go'zal damlari o'tayotgan bir payt-1941 SSSR da Ikkinchi jahon urushi boshlanadi. O'sha musibatli davrlar, farzandidan "qora xat" olgan mushfiq onalarning ko'z yoshli nolasi, ochlik, front orti talofatlari-bularning barcha-barchasi yosh bolakay qalbida chuqur iz qoldiradi. Uning Moskvada Erkin Vohidovning aynan "Ruhlar isyoni" dostoni nashr etilishiga yordam bergani ham bejizga emas, menimcha. Chunki u xoh nazmda, xoh nasrda asarlarida urushning qanchalik dahshatli hodisa ekanligini tasvirlab insonlarni ahillikka, mehribonlikka chorlaydi. Adabiyotshunos A. Rasulov o'z maqolasida ta'kidlaganidek, Faynbergning she'riyati XX asr oxirida insoniyatning ma'naviy iztiroblarini badiiy ifoda etib, o'quvchini chuqur o'yga soladi.

Faynberg o'zining mohir tarjimonlik qobiliyati va mehnatlari bilan o'zbek adabiyotini butun dunyo, xususan Rossiya va Yevropa sahnasida yoritadi. U bu faoliyati bilan jahonning turli mintaqalaridan bo'lgan kitobxonlarga O'zbekiston naqadar buyuk adabiyot va san'at arboblari boy ekanligini, ularning ijodini ta'riflashga til ojiz ekanini ko'rsatib ularning dovrug'ini butun dunyoga doston qildi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Alisher Navoiyning 10 jildlik g'azallarining tarjimasi u tufayli rus san'atshinavandalarining qo'lga yetdi. Bu bilan cheklanibgina qolmay, Abdulla Oripov, Asqad Muxtor, Omon Matjon, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Azim Suyun, Xosiyat Rustamova, Zulfiya, G'afur G'ulom kabi milliy adabiyotimizning taniqli vakillari asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. Masalan, Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ri Faynberg tarjimasi rus kitobxoniga milliy ruhni, o'zbek xalqining vatanparvarlik tuyg'usini to'laqonli yetkazib bera

olagan. Tarjima jarayonida u shunchaki so'zlarni boshqa tilga ko'chirmagan, balki o'zbek tilining badiiyligi va ohangini ham rus tiliga ko'chira olgan. Shu bois u ko'plab adabiyot mutaxasislari tomonidan "o'zbek va rus adabiyotlari o'rtasidagi ko'rik" deya e'tirof etilgan.

Ijodkor o'zining dramaturglik faoliyati bilan O'zbekiston kino va teatr sahnalarini durnona asarlar bilan boyitgan. U Toshkent kinostudiyasida suratga olingan bir qancha filmlar uchun ssenariy yozgan, shuningdek, multfilm ssenariylari ustida ham ishlagan. Shunday faoliyati bilan u o'zbek kino va teatr san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynberg shaxsi, ijodiyoti o'zbek adabiyoti gullab-yashnashiga o'zining benazir hissasini qo'shgan, qalbi o'zbek ardoqli shoir, tarjimon, dramaturgdir. Foydalanilgan

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A. Избранные стихи. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
2. Rasulov. A. "Aleksandr Fayberg ijodida lirikaning falsafiy yo'nalishi". Rus tili va adabiyoti jurnali, 2005, №3
3. Karimova M. "O'zbek she'riyatining rusiyzabon tarjimalari haqida." Jahon adabiyoti, 2001, №6.
4. Sobirova N. O'zbekiston adabiyoti va tarjima jarayonlari. - Toshkent: Universitet, 2008.
5. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg haqida xotiralar. - Toshkent: Yozuvchi, 2010.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg